

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2023-YILGI SOLIQ QONUNCHILIKGA KIRITILGAN O‘ZGARISH VA SOLIQ IMTIYOZLARI BERISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*Botirov Muxiddin Nizomidinovich*

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o‘zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish ularga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini oshirish, aholiga yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga teng raqobat sharoitlariga ega bo‘lgan yagona iqtisodiy makonni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, soliq imtiyozlari va boshqa berilayotgan yengilliklar aniq maqsadlarga yo‘naltirilayotganligiga qaramasdan, ularning samaradorligini baholashning tizimi ishlab chiqilmagan.

**Kalit so‘zlar:** byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq imtiyozlari, soliq ma‘murchiligi, tadbirkorlik sub‘ektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

**Аннотация:** Одной из важных задач является увеличение объема рыночных услуг за счет внедрения новых подходов к ним, расширение возможностей по созданию новых рабочих мест для населения, совершенствование процедуры основных изменений и налоговых льгот, вносимых в налоговое законодательство Республики Узбекистан на 2023 год. В последние годы были реализованы масштабные меры по либерализации экономики, поддержке предпринимательства и формированию единого экономического пространства с условиями равной конкуренции с целью быстрого социально-экономического развития страны. Также, несмотря на то, что налоговые льготы и другие предоставляемые льготы направлены на конкретные цели, система оценки их эффективности не разработана.

**Ключевые слова:** бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговые льготы, налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налоги, налоговые ставки, преференции.

**Abstract:** One of the important tasks is to increase the volume of market services by introducing new approaches to them, expanding opportunities to create new jobs for the population, improving the procedure for major changes and tax benefits introduced

into the tax legislation of the Republic of Uzbekistan for 2023. In recent years, large-scale measures have been implemented to liberalize the economy, support entrepreneurship and form a single economic space with conditions of equal competition with the aim of rapid socio-economic development of the country. Also, despite the fact that tax benefits and other benefits provided are aimed at specific purposes, a system for evaluating their effectiveness has not been developed.

**Keywords:** budget policy, crisis, budget, tax benefits, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxes, tax rates, preferences.

## **1. Kirish.**

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy siyosatining eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo'jalik sub'ektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni amalga oshirish hisoblanadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli soliq islohotlarining natijasida aholi real daromadlari o'sishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

## **2. Adabiyotlar sharxi.**

Mavzu doirasida asosiy o'rganiluvchi iqtisodiy kategoriya soliq imtiyozlari tushunchasi bo'lib, soliq imtiyozlariga nisbatan berilgan ta'riflarga batafsil to'xtalsak.

Nezamaykin va Yurzinovalar (2004) —soliq imtiyozi – boshqa to'lovchilarga nisbatan soliq to'lovchilarga soliq to'lovchilarning alohida toifalariga soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan afzalliklarning, jumladan, soliq yoki yig'imini to'lamaslik yoki kichikroq hajmda to'lash imkoniyatining berilishi deydi. [1].

Mayburov (2011) soliq imtiyozlarini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lash muddatini o'zgartirish bo'yicha imtiyozlar olishga imkon beruvchi imtiyozlar hamda ular bir nechta shakllarga ajratiladi: soliq krediti, investitsion soliq imtiyozi, soliq ta'tili. [2].

Milyakova (2008) —soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning alohida toifalariga boshqa soliq to'lovchilar bilan taqqoslaganda afzalliklar taqdim etish, jumladan soliq yoki yig'imni to'lamaslik yoki ularni ozroq miqdorda to'lash imkoniyati. [3].

Raxmatullaeva (2016) soliq imtiyoziga kategoriya sifatida quyidagicha ta'rif bergan: —imtiyozlar - bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida soliq to'lovchining soliq majburiyatlarini qonun tomonidan belgilangan shaklda butunlay yoki qisman kamaytirishning yo'llari, huquqlari va majburiyatlari majmuidir. [4].

Jo'raev va boshqalar (2009) soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin. [5].

Shuning bilan, soliq imtiyozlarini taqdim etish, ularni tizimlashtirish, ularning joriy qilinishi natijasida raqobat muxitining murrakablashib borishi yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borishi lozim bo'lgan muammolar mavjud.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq imtiyozlariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

### **4. Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston Respublikasining 2023 yilgi soliq konsepsiyasi doirasida soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o'zgarish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "2023-yil uchun Davlat byudjeti to'g'risida" qonuni (30.12.2022y, O'RQ-813-son), "2023-yil O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni (30.12.2022y, O'RQ-812-son) hamda mazkur qonunning ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (30.12.2022y, PQ-471-son) qabul qilindi.

Mazkur qonunchilik hujjatlari bilan Soliq kodeksining amaldagi 52 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi hamda yangi 2 ta modda bilan to'ldirildi. Ushbu kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni korxonalarining toifalariga qarab 4-ta yo'nalishga bo'lish mumkin.

#### ***1-yo'nalish. Korxonalar toifalari bo'yicha:***

Yirik va QQS solig'i to'lovchilari uchun qonunchilik hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha:

Soliq to'lovchilarning toifasi, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, shuningdek soliq hisobotini taqdim etish muddatlari saqlab qolindi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirildi;

Natijada 14 trln so'm mablag' soliq to'lovchilar ixtiyorida qolishi kutilmoqda.

Qoplanadigan (qaytariladigan) qo'shilgan qiymat solig'i summasining asosligi yuzasidan kameral soliq tekshiruvini o'tkazish muddatlari 60 kundan 30 kunga qisqartirildi. 2023-yil 1-apreldan quyidagilar bo'yicha berilgan imtiyozlar bekor qilindi:

byudjet mablag'lari hisobidan har yillik mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlari doirasida ko'rsatiladigan geologiya xizmatlari bo'yicha aylanma;

Davlat byudjetiga qo'shimcha 106 mlrd so'm soliq tushishi kutilmoqda.

pochta markalari, markali otkritkalar, konvertlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma;

Davlat byudjetiga qo'shimcha 2 mlrd so'm soliq tushishi kutilmoqda.

byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlarni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma.

Davlat byudjetiga qo‘shimcha 1 mlrd so‘m soliq tushushi kutilmoqda.

Shuningdek, 2023-yil 1-iyuldan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash bo‘linmalari xizmatlari bo‘yicha taqdim etilgan imtiyozlar bekor qilindi. Davlat byudjetiga qo‘shimcha 27 mlrd so‘m soliq tushishi kutilmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar deb e‘tirof etilishi belgilandi.

Bu norma ixtiyoriy va zaruratga qarab amalga oshiriladi. Misol uchun, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–147-son qarori bilan “O‘zdavxaxira” qo‘mitasi QQS to‘lovchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

2023-yil 1-yanvardan boshlab, QQS guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilganligi munosabati bilan hisobga qabul qilinmagan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘langan (to‘lanishi lozim bo‘lgan) soliq summasiga, guvohnomaning amal qilish muddati tiklangan taqdirda, soliq to‘lovchida va uning xaridorlarida guvohnomaning amal qilishi to‘xtatib turilgan davr uchun tuzatishlar kiritilishi (hisobga qabul qilinishi) huquqi berildi. Misol uchun: Korxonalar QQS guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatilgandan keyin QQS bilan 1 150 mln.so‘mlik tovar (xizmat) sotib olganda, 150 mln.so‘mini tovar narxiga kiritishga to‘g‘ri kelardi, kiritilgan o‘zgartishdan keyin 150 mln.so‘mni hisobga oshi huquqi paydo bo‘ldi. Respublika bo‘yicha 2022-yilda 61970 korxonalar tomonidan 2 207 mlrd.so‘m QQS summasi tovar qiymatiga kiritilib mahsulot tannarxining oshishiga olib kelgan.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasida hisobda turadigan soliq to‘lovchilarga tovarlarni import qilish chog‘ida qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovi hisobiga byudjetdan qoplanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish huquqi berildi. Bunda hisobga olish soliq va bojxona organlari tomonidan avtomatik rejimda amalga oshiriladi. Buning uchun soliq to‘lovchi BYuDni rasmiylashtirayotganda qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplanishi lozim bo‘lgan summa hisobidan to‘langani to‘g‘risida belgi qo‘yishi lozim. Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha 2022-yilda 106 ta korxonalar tomonidan 234,5 mlrd.so‘m tovarlarni import qilishda byudjetga QQS to‘langan bo‘lib, ularning QQS bo‘yicha soliq organlaridagi ortiqcha to‘lovi 903,3 mlrd.so‘mni tashkil qilgan.

#### ***Aksiz solig‘i bo‘yicha:***

Soliq to‘lovchilarning toifasi, shuningdek soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to‘lash muddatlari saqlab qolindi. 2023-yil 1-fevraldan boshlab neft mahsulotlari

hamda ishlab chiqariladigan alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilindi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab alkogol mahsulotlarini (kuchsiz alkogolli ichimliklar bundan mustasno) ishlab chiqarishda aksiz solig'i aksiz to'lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtining ulushidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Bunda ishlab chiqariladigan alkogol mahsulotining o'lchov birligi «litr» deb belgilandi (ilgari «dal» edi).

2023-yilda ushbu mahsulotlarga aksiz solig'i stavkasi aksiz to'lanadigan tovar tarkibidagi suv qo'shilmagan etil spirtining 1 litri uchun 34 500 so'm miqdorida belgilanmoqda. Masalan, aroq tarkibidagi etil spirti ulushi 40%ni tashkil etadi, 1 litr uchun aksiz solig'i summasi 13 800 so'mni ( $34\,500 \text{ so'm} \times 40\%$ ), 2023 yilning 1 fevralidan boshlab esa indeksatsiyani hisobga olgan holda – 15 200 so'mni ( $38\,000 \text{ so'm} \times 40\%$ ) tashkil etadi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, efinaldegidli fraksiyadan texnik rektifikatsiyalangan etil spirti va asosiy fraksiyadan etil spirtiga aksiz solig'i stavkasi 5 baravarga oshirildi va 1 litr uchun 7 450 so'mni tashkil etdi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab alkogol va tamaki mahsulotlarini import qilishda aksiz solig'i stavkalari 5 foizga pasaytirildi.

Bundan tashqari, Foydali qazilmalar kavlab olinadigan konlarda tog' jinslarini olib tashlash ishlari istiqbolni ko'zlab amalga oshirilishini inobatga olgan holda, ular alohida amortizatsiya aktivlari guruhiga o'tkazildi. Ushbu xarajatlar mazkur amortizatsiyalanadigan aktiv bo'yicha amortizatsiya

Quyidagi toifadagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'i stavkasini 50 foizga pasaytirish huquqi beriladi:

a) 2022-yil 1-sentyabrdan keyin birinchi marta foyda solig'ini to'lashga o'tgan aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilarga – soliq to'lovchi soliq to'lashga o'tgan yildan keyingi bitta soliq davri davomida, basharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llanadigan soliq davrida soliq to'lovchining jami daromadi 10 milliard so'mdan oshmagan bo'lsa;

Bunda mazkur soliq to'lovchilar soliq bazasini soddalashtirilgan tartibda jami daromadning 25 foizi miqdorida belgilashga haqli.

Misol. 2022-yilning 1-oktyabrda (ya'ni 2022-yilning 1-sentyabridan keyin) foyda solig'ini to'lashga o'tgan soliq to'lovchi, basharti 2023-yilda uning jami daromadi 10 mlrd so'mdan oshmagan taqdirda, soliq to'lovchi 2023-yil (1-yil) davomida foyda solig'ini 7,5 foiz stavkasi bo'yicha to'lashga haqli bo'ladi.

Natijada tadbirkorlar ixtiyorida 12,1 mlrd.so'm mablag' qoladi

b) 2022-yil 1-sentyabrdan keyin joriy soliq davri davomida jami daromadi birinchi marta 10 milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilarga – basharti pasaytirilgan soliq stavkasi qo'llanadigan soliq davrlarida jami daromad 100 milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, joriy soliq davri va keyingi soliq davri davomida. Misol. 2023-

yilning 9-oyi yakunlariga ko'ra soliq to'lovchining jami daromadi birinchi marta 10 mlrd so'mdan oshdi. Soliq to'lovchining 2023 yoki 2024-yildagi jami daromadi 100 mlrd so'mdan oshmasa, u 2023 yil uchun 7,5% miqdoridagi stavkani qo'llagan holda foyda solig'ini to'laydi va 2024-yilda (2 yil) pasaytirilgan stavkani (7,5%) qo'llaydi. Natijada tadbirkorlar ixtiyorida 376,4 mlrd.so'm mablag' qoladi.

Qat'iy belgilangan summadagi soliq teng ulushlarda har oyda, kalendar oydan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi. Mazkur soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchi soliq hisobiga qo'yilgan joydagi soliq organiga keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin xabarnoma yuborishi zarur. Mazkur norma 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirishini e'tiborga olgan holda, birinchi marta qat'iy belgilangan summada soliq to'lashga o'tayotgan soliq to'lovchilar soliq organlariga xabarnomani 2023-yil 25-yanvardan kechiktirmay taqdim etishga haqli. Yangi tashkil etilgan soliq to'lovchilar davlat ro'yxatidan o'tish chog'ida qat'iy belgilangan summada soliq to'lashni tanlashga haqli. Qat'iy belgilangan summada soliq to'lashni rad etish navbatdagi soliq davri boshidan amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida qat'iy belgilangan summada soliq to'lashga o'tishda, soliq miqdori qat'iy belgilangan summani 12 ga bo'lish va olingan natijani joriy soliq davri oxirigacha qolgan oylar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Soliq davri mobaynida qat'iy belgilangan summada soliq to'lovchining jami daromadi 500 million so'mdan oshgan taqdirda, qat'iy belgilangan summadagi soliq summasi u oshgan oydan boshlab joriy soliq davri oxirigacha, 500 million so'mdan ortiq jami daromadga ega soliq to'lovchilar uchun belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda qayta hisoblanadi. Soliq davri mobaynida jami daromadi 1 milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tkazilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar jami daromadning ko'rsatilgan miqdoriga yetgan kundan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadilar.

### **2-yo'nalish: Soliq turlari bo'yicha:**

Soliqlarning stavkalari bo'yicha. Foyda solig'i (15%, alohida toifalar uchun – 20%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12%), yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (1,5%), qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i (0,95%), ijtimoiy soliq (byudjet tashkilotlari – 25%, qolganlar – 12%) bo'yicha stavkalar saqlab qolinmoqda.

### **Foyda solig'i bo'yicha:**

2022-yil 1-noyabrdan boshlab tovarlarni (xizmatlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foydaga, eksportdan olingan daromadning jami daromaddagi ulushidan qat'iy nazar, 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasi bo'yicha soliq solinadi. Bunda 2023-yil 1-yanvardan boshlab doimiy muassasalar orqali O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga xizmatlar

ko'rsatishdan olingan foyda bo'yicha 0 foiz miqdoridagi soliq stavkasi qo'llanilmaydi. Natijada tadbirkorlar ixtiyorida 5,0 mlrd.so'm mablag' qoladi.

Faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident dividendlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan pasaytirilgan soliq stavkasini qo'llashga haqli ekanini nazarda tutuvchi aniqlashtirish kiritildi. Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha soliq solish masalalariga doir O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida bir nechta pasaytirilgan soliq stavkasi nazarda tutilgan bo'lsa, ularning eng past bo'lgani qo'llaniladi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab norezidentning montaj qilish va (yoki) ishga tushirish-sozlash xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlarni ko'rsatishini nazarda tutuvchi asbob-uskunalarini sotib olish (sotish) uchun tashqi savdo kontrakti doirasida, ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati alohida ko'rsatilmasa, u holda norezidentning soliq solinadigan daromadi bunday xizmatlarning bozor qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi (ilgari – asbob-uskunalar qiymatining 20 foizi). Soliq bo'yicha avans to'lovlari summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etish muddatiga o'zgartirish kiritildi. Xususan, 2023-yil 1-yanvardan boshlab ushbu ma'lumotnomani joriy chorakda olinishi kutilayotgan foyda summasidan kelib chiqib keyingi chorakdagi birinchi oyning 15-sanasigacha (ilgari 10-sanasigacha) taqdim etishga haqli. 2023-yil 1-apreldan boshlab jismoniy shaxslarning hayotini uzoq muddatga sug'urtalash haqini to'lashga yo'naltiriladigan jismoniy shaxslarning daromadlari qismida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilindi. Davlat byudjetiga qo'shimcha 50 mlrd so'm soliq tushishi kutilmoqda.

Qat'iy belgilangan miqdorlarda soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi 10 foizga indeksatsiya qilindi. Davlat byudjetiga qo'shimcha 30,0 mlrd so'm soliq tushishi kutilmoqda. Keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay belgilanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha yillik soliq hisobotini taqdim etish muddatlariga o'zgartirish kiritildi. 2022-yil yakunlariga ko'ra yillik soliq hisobotini 2023-yil 15-fevraldan kechiktirmay taqdim etish zarur. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilindi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha Soliq kodeksining 415-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan ob'ektlar bo'yicha belgilangan pasaytirilgan soliq stavkasini bazaviy soliq stavkasiga, 2023-yilda uni 0,5 foizdan 0,6 foizgacha oshirish yo'li bilan, bosqichma-bosqich yetkazish davom ettiriladi. Yuridik shaxslar uchun pasaytirilgan soliq stavkasi 2020-yildan boshlab ilgari soliq imtiyozlari berilgan ob'ektlar bo'yicha joriy etilgan edi.

Soliq hisobotini taqdim etish va soliqni (bo‘nak to‘lovlarini) to‘lash muddatlariga o‘zgartirish kiritildi. Xususan, quyidagi muddatlar belgilanmoqda:

soliq hisobotini taqdim etish – hisobot beriladigan soliq davridan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay. Soliq davri uchun soliq, bo‘nak to‘lovlarini hisobga olgan holda, xuddi shu muddatda to‘lanadi;

joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani taqdim etish (bo‘nak to‘lovlari) – joriy soliq davrining 20 yanvaridan kechiktirmay;

aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar tomonidan bo‘nak to‘lovlarini to‘lash – har chorakdagi uchinchi oyning 20-sanasidan kechiktirmay. Qolgan soliq to‘lovchilar uchun bo‘nak to‘lovlarini to‘lash muddatlari saqlanib qoladi – har oyning 10-sanasigacha, bunda ular yanvar oyi uchun 20 yanvardan kechiktirmay to‘laydi.

### **3-yo‘nalish: Hududlar bo‘yicha**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-287-son Farmoniga muvofiq:

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar soliq solishning quyidagi tabaqalashtirilgan tartibi joriy etilsin:

a) 5-toifadagi tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik sub’ektlari (yirik soliq to‘lovchilar, doimiy muassasa, byudjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq miqdorda bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno):

foйда solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni 1 foiz;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdoridagi soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi;

b) 5-toifadagi tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan summalarini to‘lashdan ozod qilinadi;

Natijada tadbirkor ixtiyorida 7,1 mlrd so‘m mablag‘ qolishi kutilmoqda.

v) 4-toifadagi tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan va shu hududlarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlik sub’ektlari (yirik soliq to‘lovchilar, doimiy muassasa, byudjet tashkiloti va davlat korxonasi, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq miqdorda bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) uchun aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy soliq stavkasi 3 foiz etib belgilanadi. Bunda, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda mazkur soliq bo‘yicha pasaytirilgan soliq stavkalari saqlab qolinadi;

Natijada tadbirkor ixtiyorida 13,1 mlrd so‘m mablag‘ qolishi kutilmoqda.



g) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga 4-toifadagi tumanlar bo‘yicha:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha Soliq kodeksi bilan belgilangan eng kam qiymatlarga 0,3 gacha;

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat‘iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 0,5 gacha kamaytiruvchi koeffitsient kiritish huquqi beriladi. Natijada tadbirkor ixtiyorida 439,7 mlrd so‘m mablag‘ qolishi kutilmoqda.

#### **4-yo‘nalish: Boshqa o‘zgartirishlar**

Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning saqlanishi uchun soliq qarzi undiruvini soliq qarzi mavjud soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish muddati 30 kundan 60 kungacha uzaytirilmoqda. Ma‘lumot uchun: Joriy yilning 1-noyabr holatiga MIB tomonidan undirilgan 1,4 trln so‘m soliq qarzining 1,3 trln so‘mi (93%) inkasso topshiriqnomalari va atigi 137 mlrd so‘m (7%) qarzdorning mol-mulki hisobidan ta‘minlangan.

Jami daromadi 10 mlrd so‘mgacha bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lovchilarga soliq qarzini 6 oy muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash haqida xabardor qilish huquqi berilmoqda (bundan ustav fondida (ustav kapitalida) 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, yer qa‘ridan foydalanuvchilar va aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar mustasno). Bunda foizlarni to‘lamasdan bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati kalendar yil davomida bir marta taqdim etiladi. Respublika bo‘yicha 16 462 ta korxonaning 944,8 mlrd. so‘mlik soliq qarzini ortiqcha talablarsiz 6 oy muddatga bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati yaratiladi.

#### **Xulosa va takliflar.**

Raqobat muhitini buzuvchi individual imtiyozlar va preferensiyalarni yetarli natija ko‘rsatmayotgan sohalar va yo‘nalishlar bo‘yicha, shuningdek eskirgan va amaliyotda foydalanilmayotgan imtiyozlar va subsidiyalarni qisqartirish yoki bekor qilish, yuqori natija ko‘rsatayotgan hududlar, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratib, tez o‘sayotgan sohalar uchun yangi qo‘llab-quvvatlash turlarini joriy etish, yaratilgan qo‘shilgan qiymat, ish o‘rinlari, eksport kabi ko‘rsatkichlar asosida har bitta imtiyoz, subsidiya, kompensatsiya va kafillik bo‘yicha samaradorlikni baholash tizimini (KPI) yo‘lga qo‘yish hamda Moliya vazirligida yangi tuzilma ochish, ushbu tuzilmada soliq hisobini yaratish, imtiyozlarni, subsidiyalarni hamda boshqa yengilliklarni samaradorligini baholashni amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

**Adabiyotlar /Литература/Референсе:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Мамлакатимиз тадбиркорлари билан очик мулоқот шаклидаги учрашувда сўзлаган нутқи. 2021 йил 20 август. – <https://president.uz/uz/lists/view/4551>
2. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
3. Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ кўмитаси маълумотлари. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz).
4. Александров И. М. (2009) Налоги и налогообложение: Учебник / И. М. Александров. — 10-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско- торговая корпорация «Дашков и К, 228 с.
5. Жўраев А., Тошматов Ш., Абдурахмонов О. (2009) Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма. Т.: NORMA. 184- бет.
6. Баладина А.С. (2011) Анализ теоретических аспектов налоговых льгот и налоговых преференций // Вестник Томского государственного университета- №4(16)- С. 45-60.
7. Рахматуллаева Ф. (2016) —Солиқ имтиёзларининг моҳияти ва иқтисодийни рағбатлантиришдаги роли. Молия илмий журнали №2/ 108 бет.
8. Незамайкин В.Н., Юрзинова И.Л. (2004) Налогообложение юридических и физических лиц. –М.: Экзамен, С.44.
9. Майбуров И.А. (2011) Налоги и налогообложение . Ред. 4-е изд. - М: 558 с.
10. Милякова Н.В. (2008) Налоги и налогообложение. Учебник. 7-е изд. Перераб. И доп.–М.:ИНФРА, С.33 Milyakova N.V.
11. Нормурзаев , У. . (2022). Хукуматимиз томонидан солиқ маъмурчилиги бўйича 2018-2022 йилларда амалга оширилган солиқ ислохотлари натижалари. Иқтисодий ва инновацион технологиялар, 10(5), 325–330. [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss5/a35](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35)
12. Нормурзаев У. (2021). Анализ эффективности налоговых льгот и преференций в поддержке определенных секторов с целью дальнейшего повышения инвестиционной привлекательности в узбекистане. Экономика и образование, (6), 82–86. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>
13. Нормурзаев У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)
14. Нормурзаев У. Тадбиркорларни кўллаб-қувватлашда солиқ имтиёзларини бериш орқали самарали усуллардан фойдаланиш йўллари //Экономика и образование. – 2021. – №. 3. – С. 91-95.